XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-sentabr VI-83-102-5-79-K/24 Navoiy shahar

Navoiy shahar mahalliy budjetining 2024-yil II chorak daromadlarni orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasida belgilangan tartibda mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlarini moliyalashtirish bo‘yicha takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navoiy shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b N.To‘xtayevning mahalliy budjetining 2024-yil II chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan 1-ilovaga muvofiq mablag‘ ajratsin.

2. Navoiy shahar iqtisodyot va moliya bo‘limi va tashkilot rahbarlari, shahar hokimligi ajratilgan mablag‘lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli foydalanilishini, xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat’iy amal qilinishi ta’minlasin.

3.Shahar iqtisodyot va moliya bo‘limi (N.To‘xtayev), shahar g‘aznachilik bo‘limi (F.Xidirov) ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O‘.Haqberdiyevga hamda xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining Mahalliy budjetni, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Ashurova zimmasiga yuklansin.

Sessiyaga raislik qiluvchi AZIMOV AMIR ABRALOVICH

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-83-102-5-79-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahar mahalliy budjetining 2024-yil II-chorak daromadlarni orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchaskalarga bo‘lgan huquqlarini sotishdan tushgan tushim hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

T/R	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratilgan mablag‘ *(ming so‘mda)*	Shundan	
				Daromadlarni orttirib bajarilgan qismi hisobidan	Yer uchaskalarga bo‘lgan huquqlarini sotishdan tushgan tushim hisobidan
1	Navoiy shahar hokimligi	Fuqarolarning tashabbus jamg‘armasiga "OPEN BUDJET'	124 012	81012	43000
2		Ijara to’lovi xarajati uchun	25 000	25 000	
3	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Gul ko’chatlari sotib olish uchun	50 000	50 000	
4		I.Karimov ko’chasiga kamera o’rnatish xarajatlari uchun	71 000	71 000	
5		Baner tayorlatish xarajati uchun	24 000	24 000	
6		Suv nasos sotib olish uchun	30 000	30 000	
7		Festival bayroqlari sotib olish uchun	37 000	37 000	
8		9x18 hajimdagi Davlat bayrog‘ sotib olish uchun	25 000	25 000	

9		Xo‘jalik mollari sotib olish uchun	25 000	25 000	
Jami			**411 012**	**368 012**	**43 000**